



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 20 - avgust

106-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Termiz shahridagi yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi transportlarda
yo‘lovchi tashish tarifini belgilash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, viloyat Transport boshqarmasining 2021-yil 23-fevraldagi 06-02/44-son hamda viloyat Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 2-martdagi 22-05-08/1071-son xatlarini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Termiz shahridagi yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi transportlarda yo‘lovchi tashish tarifi har bir yo‘lovchi uchun 1500 (bir ming besh yuz) so‘m miqdorda belgilansin.

2. Viloyat Transport boshqarmasi (X.Voxidov)ga:

Termiz shahridagi yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar va korxonalarga ushbu qaror bilan belgilangan yo‘lovchi tashish tarifini yetkazish hamda mazkur tarif asosida yo‘lovchilar tashishni tashkil etish;

Termiz shahar hokimi (I.Xudoyberdiev) bilan birgalikda 1 hafta muddatda Termiz shahridagi yo‘lovchi tashish transportlari to‘xtash bekatlari va dispetcherlik manzillarini joylashtirish yerini aniq belgilash hamda bekatlarda tegishli belgilarni o‘rnatish;

yo‘lovchi tashish transportlarining harakatlanish jadvali va muddatiga rioya etilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Viloyat IIB YHXB (I.Soipov) Termiz shahridagi yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi avtobuslarning faqat bekatlarda to‘xtashini ta‘minlash bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rsin.

4. Surxondaryo viloyati hokimining 2019 yil 4 oktyabrdagi 518-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Z.To‘raev) mazkur qarorni

“Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalarida e’lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o’rinbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.